



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

KONVERSIYA VA TRANSPOZITSIYA HODISALARINING QIYOSIY TALQINI: O'ZBEK TILI MATERIALI ASOSIDA

Hamidova Bibigul Rabbimovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Maqolada konversiya tushunchasining tilshunoslik nazariyasida shakllanish bosqichlari, uning g'arb, rus va o'zbek tilshunosligida talqin qilinishi qiyosiy yo'sinda tahlil qilinadi. Tadqiqotda konversiyaning so'z yasalish jarayoni, omonimiya va sintaktik transpozitsiya bilan munosabati nazariy-metodologik nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Asosiy diqqat o'zbek tilidagi konversiya ko'rinishlariga - otlashish, sifatlashish, ravishlashish jarayonlariga qaratilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilining agglutinativ tipologiyasi konversiyaning hind-yevropa tillaridagiga nisbatan o'ziga xos yo'nalishda namoyon bo'lishini taqozo etadi. Olingan xulosalar konversiya va transpozitsiya tushunchalarining terminologik chegaralarini aniqlashtirishga, o'zbek tilshunosligi atamashunosligini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: konversiya, transpozitsiya, otlashish, omonimiya, so'z yasalishi, konversiv transformatsiya, agglutinativ til.

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЯВЛЕНИЙ КОНВЕРСИИ И ТРАНСПОЗИЦИИ: НА МАТЕРИАЛЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Хамидова Бибигуль Раббимовна

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, независимый
исследователь

Аннотация

В статье анализируются этапы формирования понятия конверсии в лингвистической теории, а также её интерпретации в западном, русском и узбекском языкознании. Рассматриваются теоретико-методологические аспекты взаимосвязи конверсии с процессами словообразования, омонимии и синтаксической транспозиции. Особое внимание уделяется проявлениям конверсии в узбекском языке, в частности процессам субстантивации, адъективации и адвербиализации. Результаты исследования показывают, что агглютинативная типология узбекского языка обуславливает специфические особенности проявления конверсии по сравнению с индоевропейскими языками. Кроме того, в статье выявляются общие и отличительные черты конверсии и транспозиции, а также уточняются границы данных терминов. Полученные выводы могут способствовать дальнейшему развитию теории словообразования и совершенствованию терминологической системы узбекского языкознания.

Ключевые слова: конверсия, транспозиция, субстантивация, омонимия, словообразование, конверсивная трансформация, агглютинативный язык.

A COMPARATIVE INTERPRETATION OF CONVERSION AND TRANSPOSITION: BASED ON THE MATERIAL OF THE UZBEK LANGUAGE

Hamidova Bibigul Rabbimovna

Sharof Rashidov Samarkand State University, Independent Researcher

Abstract

This article examines the stages of the development of the concept of conversion in linguistic theory and provides a comparative analysis of its interpretation in Western, Russian, and Uzbek linguistics. The study explores the theoretical and methodological relationship between conversion, word formation, homonymy, and syntactic transposition. Particular attention is paid to the manifestations of conversion in the Uzbek language, including the processes of substantivization, adjectivization, and adverbialization. The findings demonstrate that the agglutinative typology of the Uzbek language determines specific patterns of conversion that differ from those found in Indo-European languages. The article also discusses the common and distinctive features of conversion and transposition and seeks to clarify the terminological boundaries between these concepts. The results contribute to the advancement of word-formation theory and the improvement of linguistic terminology in Uzbek linguistics.

Keywords: conversion, transposition, substantivization, homonymy, word formation, converive

transformation, agglutinative language.

Soʻz turkumlari aro oʻtish hodisasi oʻzbek tilshunosligida uzoq vaqtdan beri muhokama mavzusi boʻlib kelmoqda, ammo tegishli terminologik tizim hozirgacha bir xil qoidaga keltirilgan emas. Konversiya, transpozitsiya, otlashish, leksik-grammatik omonimiya kabi tushunchalar koʻpincha bir-birining oʻrnida, baʼzan esa bir-birini istisno qiluvchi maʼnolarda qoʻllanilmoqda. Bu holat, bir tomondan, oʻzbek tilshunosligining bu sohada hali yetarlicha shakllanmaganligidan, ikkinchi tomondan, jahon tilshunosligidagi fundamental nazariy manbalarning mahalliy ilmiy diskursga toʻliq integratsiyalashmagani bilan ham izohlanadi. Mavzuning dolzarbligi shu bilan belgilanadiki, konversiya hodisasini nazariy jihatdan aniq tushuntirmasdan turib, oʻzbek tilining soʻz yasallash tizimini, omonimiya hodisasini va sintaktik moslashuvchanlikning chegaralarini puxta tasvirlash mumkin emas. Bundan tashqari, tarjima amaliyotida, xususan, ingliz-oʻzbek tarjimasida manba tilning grammatik shaklini oʻzgartirish zaruriyati koʻp hollarda aynan konversiv tabiatga ega boʻlib, bu jarayonni nazariy tushunish tarjimon mahoratiga bevosita taʼsir qiladi.

Tadqiqotning maqsadi konversiya tushunchasining tilshunoslik nazariyasidagi turli talqinlarini qiyosiy oʻrganish, uni transpozitsiya va omonimiyadan farqlovchi belgilarni aniqlash hamda oʻzbek tilidagi konversiv hodisalarning tipologik oʻziga xosligini koʻrsatishdan iborat. Tadqiqotning metodologik asosi qiyosiy-tipologik, deskriptiv va sistemali-struktural usullardan tashkil topgan. Materialni tahlil qilishda kontekstual va paradigmatic tahlil usullaridan ham foydalanildi.

Konversiya tushunchasini gʻarb tilshunosligida nazariy jihatdan asoslab bergan dastlabki tadqiqotchilardan biri Otto Yespersen hisoblanadi. U ingliz tilining analitik tabiatini hisobga olib, bir soʻzning bir necha turkumda qoʻllanila olishini “funktional oʻtish” deb atagan. Keyinroq Hans Marchand bu hodisani “zero-derivation” termini bilan ifodalab, uni soʻz yasallashining mustaqil, mahsuldor turi qatoriga qoʻydi va affiksall yasallash hamda kompozitsiya bilan bir tizimda koʻrib chiqdi [3]. Marchandning yondashuvi muhim boʻlib, u konversiyani semantik motivlanganlik mezonini asosida omonimiyadan farqlash imkonini berdi.

Laurie Bauer Marchand qarashlariga aniq fikriy javob qaytarib, “zero-derivation” tushunchasiga shubha bildirgan. Bauer nol-affiks nazariyasini lingvistik reallikka zoʻrlab moslashtirilgan konstruksiya deb baholaydi va konversiyani affiksall yasallashdan farqli, mustaqil hodisa sifatida ajratishni taklif etadi [4]. Ingo Plag esa konversiya tushunchasini paradigmatic nuqtai nazardan tahlil qilib, uning yoʻnalishini aniqlashda semantik bogʻliqlik va mahsuldorlik mezonlariga tayanish kerakligini koʻrsatib bergan [5].

Konversiya hodisasini ingliz tili grammatikasi doirasida eng toʻliq yoritgan asar Randolph Quirk va uning hammualliflari tomonidan yozilgan keng qamrovli grammatikadir. Unda konversiya ikki koʻrinishda — toʻliq va qisman (partial conversion) — sifatida farqlangan. Qisman konversiya leksik birlikning yangi turkum xususiyatlarini muayyan darajada qabul qilib, uning yaxlit paradigmasiga ega boʻlmasligi sifatida talqin qilinadi [6].

Transpozitsiya tushunchasiga keladigan boʻlsak, uni alohida nazariy kategoriya sifatida shakllantirgan Lucien Tesnière hisoblanadi. Olim transpozitsiyani soʻz yoki birlikmaning sintaktik vazifa nuqtai nazaridan boshqa kategoriyaga oʻtishi deb taʼriflagan va uning birinchi hamda ikkinchi darajali turlarini ajratgan [8]. L. Tenyer yondashuvining ilmiy qimmatini transpozitsiyani lisoniy tejamkorlik tamoyili asosida tushuntirishi bilan belgilanadi. Tildagi mavjud birliklarni yangi funktsional vazifalarda qoʻllash tizimni ortiqcha shakllar hisobiga yuklanishdan asraydi.

Rossiya tilshunosligida konversiya muammosi A.I. Smirnitkiy tadqiqotlarida fundamental tahlil etilgan. Olim mazkur hodisani morfologik paradigmanning oʻzgarishi deb hisoblab, uni omonimiyadan farqlovchi asosiy mezon sifatida semantik motivlanganlikni koʻrsatadi. E.S. Kubryakova esa jarayonga kognitiv-funktional yondashuvni tatbiq etib, konversiyani soʻz maʼnosining yangi grammatik kategoriya doirasida qayta talqin etilishi tarzida belgilagan [7].

Oʻzbek tilshunosligida konversiya atamasi A. Hojiyev tadqiqotlari orqali kirib kelgan. “Lingvistik terminlarning izohli lugʻati”da olim konversiyani bir turkumdagi leksemaning shakli oʻzgarmagan holda boshqa turkum vazifasini bajarishi deb taʼriflaydi va uni otlashish, sifatlashish, ravishlashish kabi xususiy koʻrinishlar orqali tushuntiradi [1]. Sh. Rahmatullayevning “Hozirgi adabiy oʻzbek tili” darsligida bu hodisaga “soʻz turkumiga koʻchish” deb yondashilgan. Muallif uni omonimiyadan farqlash uchun semantik bogʻliqlik mezonini asos qilib oladi [2]. Keyingi davr tadqiqotlarida oʻzbek tilshunoslari konversiya hodisasini transformatsiya, inversiya va tarjima nazariyasi bilan birgalikda oʻrganib, masalaning amaliy qirralarini yoritmoqdalar.

Mavjud adabiyotlarni qiyosiy koʻzdan kechirish shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tilshunosligida bu masala boʻyicha hozircha terminologik birlik mavjud emas, jahon tilshunosligi tajribasi esa toʻliq darajada

o'zlashtirilgan deb bo'lmaydi. Tilshunoslikda konversiya tor va keng ma'noda farqlanadi. Tor ma'nodagi konversiya so'zning hech qanday morfologik vositasiz (affiks, ichki fleksiya, urg'u o'zgarishi va h.k.) bir leksik-grammatik kategoriyadan boshqasiga o'tishi, natijada yangi leksik birlik hosil bo'lishidir. Bu jarayonda so'zning tashqi shakli bir xil qoladi, ammo grammatik paradigmasi, sintaktik distribusiyasi va leksik ma'no doirasi tubdan o'zgaradi.

Konversiyaga xos belgilarni quyidagicha umumlashtirish mumkin. Asl so'z bilan undan hosil bo'lgan birlik fonetik-grafik jihatdan o'zaro mos keladi (ingl. water "suv" — to water "suv quymoq"). Ikki birlik o'rtasidagi semantik aloqa saqlanadi va aynan shu xususiyat konversiyani omonimiyadan farqlaydi. Hosila birlik yangi turkumning to'liq grammatik paradigmasini qabul qiladi. Konversiyaning ingliz tilidagi mahsuldorligi g'oyatda yuqori. Zamonaviy texnologiya sohasidagi so'zlarning aksariyati shu yo'l bilan yasalmogda: to email, to google, to friend, to text, to tweet, to like. Bu hol Bauer ta'kidlaganidek, tilning iqtisod tamoyili bilan bog'liq: yangi tushunchani ifoda etish uchun mavjud lingvistik birlikni yangi grammatik kategoriyada qo'llash imkoniyatining mavjudligi til tizimini ortiqcha shakllar bilan to'ldirilishdan saqlaydi [4].

Transpozitsiya tushunchasi konversiyaga yaqin, ammo undan kengroq. Agar konversiya leksik darajada amalga oshib, yangi lug'aviy birlik hosil qilsa, transpozitsiya sintaktik-funksional darajada qoladi. So'z muayyan kontekstda boshqa turkum vazifasini bajaradi, ammo bu yangi maqom uning leksik tarjimai holiga aylanmaydi. L.Tenyer atamasi bilan aytganda, transpozitsiya nutqiy hodisa, konversiya esa lisoniy hodisadir [8]. Kubryakovaning kuzatishicha, ko'p hollarda nutqiy transpozitsiya vaqt o'tishi bilan til tizimida mustahkamlanib, konversiyaga aylanishi mumkin [7]. Bu kuzatuv konversiya va transpozitsiyani statik emas, dinamik jarayonlar nuqtai nazaridan tushunish kerakligini ko'rsatadi.

Konversiya va omonimiyani farqlash masalasi nazariy adabiyotda eng murakkab masalalardan biri sanaladi. Tashqi tomondan, ko'k (sifat) va ko'k (ot, masalan, Tog'da ancha ko'k ko'tarilib qoldi) shakllari leksik-grammatik omonimlarga o'xshaydi. Biroq ular orasidagi semantik bog'liqlik o'z-o'zidan ko'rinib turibdi. Ikkinchi ma'no birinchisidan motivlangan hisoblanadi. A.I. Smirnitkiy konversiyani omonimiyadan ajratishda aynan ushbu hodisani, ya'ni semantik motivlanganlik belgisini bosh mezon deb hisoblaydi. G'oyaviy jihatdan buning aksi hisoblangan o't (alanga) va o't (o'simlik) leksemalarida esa bunday derivatsion bog'liqlik kuzatilmaydi. Ularning etimologik manbalari ham turlicha bo'lib, sof leksik omonimlar sirasiga kiradi.

O'zbek tilining tipologik tabiati konversiya hodisasining ingliz yoki nemis tilidagidan farqli tarzda namoyon bo'lishini taqozo etadi. Agglutativ tilda har bir grammatik ma'no o'z affiksini olishga moyildir, shu sababli ot, sifat, fe'l kabi turkumlar o'rtasidagi o'tish ko'pincha so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida amalga oshadi: bilim → bilimli → bilimlilik va h.k. Bu o'rinda sof konversiya, ya'ni hech bir qo'shimchasiz turkum almashishi hind-yevropa tillariga qaraganda kamroq uchraydi. Shunga qaramay, o'zbek tilida konversiyaning bir qator mahsuldor ko'rinishlari ajratiladi. Bularning eng faoli otlashish (substantivatsiya) hisoblanadi.

Sifatning otlashishi. O'zbek tilida sifat o'z shaklini saqlagan holda, kontekstga ko'ra, predmet nomi vazifasini bajarishi mumkin: Yaxshining shogirdi bo'l, yomonning ustoz; Aqlli aytadi, aqlsiz takrorlaydi; Yoshlarning kuchi kelajakdir. Otlashgan sifat o'zbek tiliga xos bo'lgan barcha ot kategoriyalarini — son, kelishik, egalik affikslarini qabul qila oladi: yaxshilar, yaxshining, yaxshim. Aytib o'tilgan misollarda nafaqat shakl, balki semantik nuans ham yuzaga keladi: yaxshi otlashganda "yaxshi xususiyatga ega bo'lgan shaxs" ma'nosini oladi.

Sifatdoshning otlashishi. O'zbek tilida bu konversiya turining mahsuldorligi sezilarli darajada yuqori: o'qigan, ko'rgan, yozgan, kelgan, boradigan, qiladigan kabi shakllar nutqda muayyan yoki umumiy shaxslarni anglatish uchun ot vazifasida qo'llaniladi. O'qigan ko'p bilar, ko'rgan ko'p so'ylar maqolida ikki sifatdosh ham otlashgan holatda. Bu hodisani Hojiyev konversiyaning ona tilimizdagi eng faol turi deb baholaydi [1].

Sonning otlashishi. Miqdor sonlari predmet nomiga aylanib, ot xususiyatlarini qabul qilishi mumkin: Birni ko'rsang, ikkini bilarsan; Yetti — muqaddas son. Bu turdagi konversiya tartib sonlarda ham uchraydi.

Sifatlashish (adyektivatsiya). Otning sifat vazifasida qo'llanilishi o'zbek tili uchun xosdir: temir yo'l, tilla uzuk, kumush sochlar, bahor havosi. Bu o'rinda morfologik shakl o'zgarmaydi, ammo so'zning sintaktik mavqei va semantik vazifasi tubdan farq qiladi. Birinchi misolda temir ot emas, balki sifat, "temirdan yasalgan" ma'nosida. Ayrim tilshunoslar bu birikmalarni "ot+ot" turidagi qo'shma birikma sifatida qaragan bo'lsalar, tilshunos olim Sh.Rahmatullayev bu yerda chinakam konversiya jarayoni borligini, chunki birinchi komponent gap tarkibida sifatdosh-aniqlovchi vazifasini bajarishini ta'kidlaydi

[2].

Ravishlashish (adverbializatsiya). O‘zbek tilida sifat va otlarning ravish vazifasida qo‘llanilishi keng tarqalgan: yaxshi gapirdi, baland uchdi, ko‘p ishladi. Bu o‘rinda ham morfologik o‘zgarish bo‘lmasdan, sintaktik vazifa o‘zgaradi.

Fe‘llashish (verbalizatsiya). Bu konversiya turi o‘zbek tilida ingliz tilidagidek mahsuldor emas. Chunki fe‘lning o‘zbek tilida murakkab morfologik tuzilishga (zamon, mayl, shaxs-son ko‘rsatkichlariga) ega bo‘lishi bunga ta’sir qiladi. Sof konversiya o‘rniga o‘zbek tili ko‘pincha qilmoq, bo‘lmoq, etmoq yordamchi fe‘llari bilan tuzilgan birikmalarga murojaat qiladi: ish qilmoq, savol bermoq, telefon qilmoq. Bu konstruksiyalarni A.Hojiyev “tahliliy fe‘llashish” deb ataydi va ularni o‘zbek tilidagi konversiya hodisasining o‘ziga xos shakli sifatida e’tirof etadi [1]. Yuqorida qayd etilganidek, konversiya bilan leksik-grammatik omonimiyani ajratish nazariy adabiyotning bahsli nuqtalaridan biridir. O‘zbek tilshunosligida bu masala alohida e’tibor talab qiladi, zero ko‘p hollarda bir xil ko‘rinishdagi so‘zlarning konversiya natijasimi yoki tarixiy omonimmi ekanligini bir qarashda aniqlash mushkul. Tahlil jarayonida muayyan o‘lchovlar tizimiga tayanish talab etiladi. Semantik mezon birlamchi asos va hosila birlik o‘rtasidagi ma’no aloqadorligini belgilaydi. Chunonchi, qari (sifat) – qari (ot, “keksa inson”) juftligida lisoniy bog‘liqlik yaqqol ko‘zga tashlanadi va konversiya hodisasini tasdiqlaydi. Etimologik mezon har ikki shaklning yagona manbaga borib taqalishini nazarda tutadi. Masalan, tilla (ot) hamda tilla (sifat) birliklari forsiy tildan o‘zlashgan bitta leksik asosga tayanadi. Paradigmatik mezon esa hosila shaklning yangi turkum paradigmasini to‘liq qabul qilishini ko‘rsatadi. Ko‘k so‘zining ko‘ki, ko‘kning ko‘rinishida o‘zgarishi uning ot vazifasiga o‘tganini isbotlaydi.

Qayd etilgan mezonlarning hech biri alohida olinganda yakuniy xulosa uchun kifoya qilmaydi. Obyektiv natijaga faqat ularning tizimli sintezi orqali erishiladi. I.Plagning ko‘rsatishicha, muayyan holatlarda barcha mezonlar jamlanganda ham qat’iy to‘xtamga kelish imkoni bo‘lmaydi. Bunday vaziyatlarda tadqiqotchi uchun lisoniy hodisaning “noaniq mavqeyi”ni e’tirof etish eng xolis ilmiy pozitsiya sanaladi [5]. Konversiya hodisasining amaliy ahamiyati eng yorqin tarzda tarjimashunoslikda namoyon bo‘ladi. Manba tildagi grammatik tuzilmaning maqsad tilda aynan saqlanishi har doim ham mumkin emas yoki maqsadga muvofiq emas. Bunday hollarda tarjimon konversiv transformatsiyaga murojaat qiladi, ya’ni manba tildagi bir turkumga oid birlikni maqsad tilda boshqa turkumga oid birlik bilan almashtiradi. Ingliz-o‘zbek tarjima amaliyoti bu jarayonning yorqin namunalarini beradi. Ingliz tilida nominal konstruksiyalar (nominalization) keng qo‘llaniladi va ular o‘zbek tiliga ko‘pincha fe‘lli birikmalar yoki gap shaklida tarjima qilinadi.

Mazkur transformatsiyalar tarjimonning subyektiv erkinligi bilan cheklanmay, tillarning tipologik tuzilishidagi obyektiv tafovutlardan kelib chiqadi. Ingliz tilining analitik tabiati hamda nominal birliklarga moyilligi, o‘zbek tilining agglutinatif va fe‘l markazli qurilishi o‘g‘irish jarayonida grammatik kategoriyalarni almashtirish taqozosini yuzaga keltiradi. Matn interpretatsiyasining sifati ushbu o‘tish qonuniyatlarini amalda qo‘llay olish layoqatiga tayanadi. O‘tkazilgan tizimli tahlil yakunida muayyan ilmiy xulosalarga erishildi. Lisoniy konversiya terminologik birlik sifatida murakkab evolyutsion bosqichlarni bosib o‘tgan. Antik davr lotin grammatikalaridagi mantiqiy talqinlardan boshlangan qarashlar O.Yespersen, H.Marchand hamda L.Bauer tadqiqotlarida rivojlantirilib, mustaqil so‘z yasaliishi usuli darajasiga ko‘tarildi. Transpozitsiya hodisasi esa L.Tenyer hamda E.S.Kubryakova izlanishlari zaminida funksional-sintaktik kategoriya maqomini oldi.

Har ikki hodisani o‘zaro chegaralashning amaliy mezoni mavjud. Konversiya leksik sathda yuz berib, tizimda yangi lug‘aviy birlikni keltirib chiqaradi. Transpozitsiya esa sintaktik-funksional darajada chegaralanib, sof nutqiy ko‘rinish kasb etadi. Konversiya va omonimiya munosabatlarini oydinlashtirishda semantik motivlanganlik, etimologik yaxlitlik hamda paradigmatic aloqadorlik mezonlari sinteziga tayanish lozim. Milliy tilshunoslikda konversiyaning eng faol turi sifatida substantivatsiya, ya’ni sifat va sifatdashlarning otlashishi kuzatiladi. Adjektivatsiya (sifatlashish) va adverbializatsiya (ravishlashish) jarayonlari ham lisoniy tizimda salmoqli o‘rin egallaydi. Verbalizatsiya (fe‘llashish) hodisasi o‘zbek tilining agglutinatif tabiatidan kelib chiqib, asosan analitik usulda, ya’ni ko‘makchi fe‘llar ko‘magida yuzaga keladi. Mazkur transformatsiyalar qiyoslanayotgan tillar o‘rtasidagi tipologik nomuvofiqliklarni bartaraf etuvchi universal vosita vazifasini o‘taydi. Kelgusi ilmiy izlanishlarda mazkur muammoni yoritish uchun korpus lingvistikasi metodlarini qo‘llash, turkiy tillarning qiyosiy-tipologik tahlilini kengaytirish hamda kognitiv tilshunoslik prinsiplarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. — 168 b.

2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. — Toshkent: Universitet, 2006. — 464 b.
3. Marchand H. The Categories and Types of Present-Day English Word-Formation: A Synchronic-Diachronic Approach. — 2nd ed. — München: C.H. Beck, 1969. — 545 p.
4. Bauer L. English Word-Formation. — Cambridge: Cambridge University Press, 1983. — 311 p.
5. Plag I. Word-Formation in English. — Cambridge: Cambridge University Press, 2003. — 240 p.
6. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. — London: Longman, 1985. — 1779 p.
7. Кубрякова Е.С. Типы языковых значений: Семантика производного слова. — Москва: Наука, 1981. — 200 с.
8. Tesnière L. Éléments de syntaxe structurale. — Paris: Éditions Klincksieck, 1959. — 670 p.